

KICHIK QORAYOQANING CHARADRIUS DUBIUS CURONICUS BIOLOGIYASI VA EKOLOGIYASIGA OID MATERIALLAR

Ametova N.I. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Matekova G.A.O'zRFA QQ bo'limi, Tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti
Matekova T.A. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Kalit so'zlar: kichik qorayoqa, charadrius dubius curonicus, qushlar.

Kichik qorayoqa Charadrius dubius curonicus - Amudaryoning qo'yi oqimida va deltasida ko'p sonli uchib kelib uya quruvchi va uchib o'tuvchi qush sanaladi [4].

A.M.Mambetjumayev va boshqalarning [3] ma'lumoti bo'yicha kichik qorayoqaning bahorgi uchib kelishi aprel oyining ikkinchi yarmiga to'g'ra kelgan bo'lsa (18.04.1964; 26.04.1972 yy.), M.B.Ametovning ma'lumoti [1] bo'yicha mart oyining ikkinchi yarmidan boshlab (17.04.1973; 04.04.1974; 19.03.1975 yy.) bu qushlar qayd etilgan. Ushbu muallifning ma'lumotlariga qaraganda bu qushning kuzgi uchib ketishi avgust-sentabr oylarida kuzatilgan. Nukus atrofida eng so'ngi kichik qorayoqalar 16.08. - 02.09 oraligi va 06.09.1973 y. da kuzatilgan [1].

Bizning kuzatuvimiz bo'yicha Amudaryoning quyi oqimiga daslabki kichik qorayoqalarning bahorgi uchib kelishi mart oyining uchinchi o'n kunligi va aprel oyining boshidan boshlanadi (02.04.2002; 16.04.2003; 15.04.; 06.04.2005; 26.04.2006; 06.05.2007; 25.03.2013; 29.03.2014; 12.04.2021; 15.04.2022; 01.04.2023 yy.). Kuzgi uchib ketishi sentabr-oktabr oylarida kuzatildi (13.10.2002; 14.09.2003; 08.09.2009; 05.09.2010; 16.09.2013; 22.09.2021; 07.09.2023 yy.).

M.B.Ametov ma'lumoti bo'yicha uyaning (n=27) o'lchami: uya diametri 9,5-10 sm, chuqurligi 2-2,5 sm. Ikkita uyadagi tuxumlarning (n=8) o'lchami: 30,0-30,8 x 22,6-22,5 mm (o'rtacha 30,2 x 22,1), yangi tug'ilgan tuxumlarning massasi 7,5-7,3 g. ni tashkil etagan. Tuxum bosish davri 21 kun davom etadi. Yangi tug'ilgan polaponlarning og'irligi 4,0-5,0 g, ikkinshi kuni esa 6,7 g. keladi [1, 2].

Bizning kuzatishlarimiz bo'yicha birinchi tuxum qo'ygan uyalar may oyining I-dekadasida qaid etilgan (07.05.2005; 09.05.2006; 10.05.2022; 14.05.2022) kuzatildi.

Topilgan uyalarning diametri (n=6) 7,5-9 sm (o'rtacha 8,25), lotka diametri 6 sm, tuxumlarning (n=31) o'lchami: uzunligi 27,9-30,5 mm (o'rtacha 29,2 mm), eni 21,5-22,5 mm (o'rtacha 22,0 mm), yangi tug'ilgan tuxumlarning massasi 6,2-7,5 g. (o'rtacha 6,8) ni tashkil etadi. Odatda kichik qorayoqalar uylarini suv havzalarga yaqin bo'lgan ochiq joylarga, daryo va ko'llardagi suv sathining pasayishidan hosil bo'lgan mayda orolchalarga va madaniy landshaftlarda ekilgan makkajo'xori, sholi otizlariga uya quradi. Ayrim vaqtlari tuxumlarini to'g'ridan-to'g'ri yerga qo'yadi. Uya materialari sifatida uylarining kurilish joyiga yaqin hudud-larda o'sib turgan o'simliklarning qurigan novdalaridan foydalanadi.

Daslabki polaponlarning tuxumdan chiqishi iyun-iyul oylarida (07.07.2002; 20.06.2007 yy.) kuzatildi. Yangi tuxumdan chiqqan polaponlarning (n=7) og'irligi 5,1-5,2 g. ni tashkil etadi. Polaponlar 2 kundan so'ng uyasini tark etadi va uyalari joylashgan hududga qandayda bir xavf tug'lsa, ota – onalarining ovozi eshitsa, orol ichida uyasidan uzoqlarga ketib tosh, o't orasiga yashirinadi.

Biz qora yoqalarning oziqlanishini o'rganganimizda ularning oshqozonidan suv havzalariga yaqin joylardagi mayda hasharotlar, chumolilar, ninachi va ularning lichinkalari, kapalak qurtlari, burgalar, o'simlik qoldiqlari, begona o'tlarning moyda urug'larini topganmiz.

Amudaryoning qo'yi oqimi sharoitida qora yoqalar bahorda uchib kelishi bilan va uya qurish davrida zararkunanda xasharotlarni va ularning lichinkalarini yo'q qilib qishloq xo'jaligiga katta foyda keltiradi. Shu sababdan bu turlarni va uya qurish joylarini muhofaza qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аметов М. К экологии малого и морского зуйка в дельте Амударьи // Тез. докл. Всесоюзн. конф. молодых ученых. - Самарканд, 1979. – С. 10-12.
2. Аметов М. Птицы Каракалпакии и их охрана. – Нукус: Каракалпакстан, 1981. – 138 с.
3. Мамбетжумаев А.М., Абдиреймов Т., Аметов М. Весенний орнитологический фенокалендарь в низовьях Амударьи // Вестник КК ФАН УзССР. – Нукус, 1973. - №1. – С. 24-28.
4. Мамбетжумаев А.М. Полный систематический список птиц Южного Приаралья. Сообщение 1-ое: Неворобьиные – Non-Passeriformes // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 1995. - №4. – С. 55-68.